

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 102 296,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 7,7 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 113,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,1 % ga yetdi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
I. YAHM, jami	84 005,4	102 296,1	107,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	81 100,7	98 120,5	107,9
mahsulotlarga sof soliqlar	2 904,7	4 175,6	103,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	81 100,7	98 120,5	107,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16 364,9	17 806,3	103,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	41 853,2	51 834,6	108,4
sanoat	35 842,7	44 428,7	107,3
qurilish	6 010,5	7 405,9	115,3
xizmatlar	22 882,6	28 479,6	110,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8 218,7	10 300,6	113,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 714,8	4 709,1	114,3
boshqa xizmat tarmoqlari	10 949,1	13 469,9	106,0

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 33 285,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga yuqoridir.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,5	95,9
mahsulotlarga sof soliqlar	3,5	4,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20,2	18,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	51,6	52,8
sanoat	44,2	45,3
qurilish	7,4	7,5
xizmatlar	28,2	29,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10,1	10,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,6	4,8
boshqa xizmat tarmoqlari	13,5	13,8




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 18,1 % ni, sanoat tarmog'i 45,3 % ni, qurilish 7,5 % ni va xizmatlar sohasi 29,1 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 3,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 1,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,8 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 1,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,1 f.p.) qayd etildi.

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 18,1 %), sanoatda – 107,3 % (45,3 %), qurilishda – 115,3 % (7,5 %), xizmatlar sohasida – 110,2 % ni (29,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 113,8 % (10,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,3 % (4,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,0 % dan (13,8 %) iborat bo'ldi.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 113,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 115,5 % va xizmatlar sohasida – 113,0 % qayd etildi.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 50 995,0 mlrd. so'mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 41 367,5 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 52,0 %ni (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida – 51,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

